# REFERAT

## SHAXRISABZ SHAHRI TEMURIYLAR DAVRIDA QURILGAN TARIXIY OBIDALARI

# DORUS SAODAT MAQBARASI



DORUS-SAODAT ANSAMBLI HAM UCHTA QISMIDAN IBORAT: JAHONGIR MIRZONING GO'RI, HAZRATI IMOM MASJIDI VA TEMURNIG MAQBARASI. 1376 YILDA SOHIBQIRONNING SEVIMLI O'G'LI JAHONGIR MIRZO O'LGANIDAN KEYIN AMIR TEMUR SHUNDAY QAYG'UGA CHO'MDIKI, «SOHIBQIRONNING QALBI HAMDARDLIK UCHUN 30 YIL YOPIQ EDI». «ADOLATLI SHAHZODA, JASUR JANGCHI, YER YUZIDA ATIRGULDEK IR KO'RINIB YO'QOLGAN» SHAHZODANING JASADI AJDODLARIING VATANIGA KELTIRILDI, BU YERDA UNING UCHUN MAQBARA QURILDI.



# GUMBAZI SEYIDON – SAYIDLAR GUMBAZI NOMLI ULUG'BEK AVLODLARINING MAQBARASI QURILGAN. BU KICHIK BINO O'ZINING NAFIS MUTANOSIBLIGI VA CHUQUR O'YMAKOR NAQSHLAR BILAN QOPLANGAN, AJOYIB ISHLANGAN KIRISH ESHIGI BILAN INSONNI MAHLIYO QILADI.





ULKAN MOVAROUNNAHR DAVLATINI YARATGAN VA UNING CHEKLANMAGAN HUKMRONI - AMIRI BO'LGAN TEMUR SAMARQANDNI O'Z POYTAXTI SIFATIDA TANLADI. LEKIN O'ZINING TUG'ILIB O'SGAN KICHIK VATANINI HAM HECH QACHON UNUTMAY, DOIMO UNGA G'AMXO'RLIK QILDI. ASLIDA SHAHRISABZ DAVLATNING IKKINCHI POYTAXTI EDI. TEMURNING AVLODI, BUYUK MO'G'ULLAR SULOLASINING ASOSCHISI BOBUR YOZISHICHA: «KESH SHAHRI TEMURBEKNING TUG'ILGAN JOYI BO'LGANI UCHUN, U SHAHARNI TAXT ZAINIA AYLANTIRISH UCHUN KO'P GAMHURLI QILGAN EDI».



OQSAROY SAROYI BAYRAMONA HUKUMAT BINOSI – REZIDENTSIYANING NAMUNASI BO'LISHI MUMKIN. SAROYNING QURILISHI 1380 YILDA BOSHLANGAN, LEKIN 1404 YILDA HAM UNDA PARDOZ ISHLARI TUGATILAYOTGAN EDI. BU ULUG'VOR INSHOOTNING O'QSIMON GUMBAZI ORALIG'I 22 METRDAN ORTIQ BO'LIB, TEMURIYLAR BARPO ETGAN BARCHA INSHOOTAR ORASIDA ENG ANTIQADIR.



TEMUR VA TEMURIYLARNING DAVRIDA SHAHRLARNING ANSAMBLLAR BILAN – MAJMUIY QURILISHI KENG TARQALGAN. BU SHAHRISABZDA HAM YAQQOL KO’RINADI, BU YERDA DORUS-TILOVAT VA DORUS-SAODAT ANSAMBLLARI AJRALIB TURADI.





O'RTA ASRLAR SHOIRI MAHMUD IBN VALI SHUNDAY YOZGAN: «KESH — MOVAROUNNAHR SHAHARLARIDAN… UNI JAHONNING ENG GO'ZAL JOYLARIDAN BIRI, JUDA YAXSHI VA YOQIMLI IQLIM BO'LGAN JOY DEB HISOBLASHADI. UNING DALALARI VA BOG'-ROG'LARI JUDA JOZIBALI VA ZAVQLI».

OLIMLARNING FIKRICHA, SHAHRISABZ 2700 YOSHDA, BU ESA «BOQIY SHAHAR» RIMNING YOSHIDIR. YUNESKO QARORIGA KO'RA AYNAN SHU SANA 2002 YILDA BUTUN MADANIY DUNYODA NISHONLANGAN. ERAMIZDAN AVVALGI IV ASRDA ISKANDAR ZULQARNAYN LASHKARLARI DAM OLISH UCHUN KESH VOHASIDA TO'XTAGAN, BAQTRIYANING SATRAPI BO'LGAN BESS DORO III IN O'LDIRIB, O'ZINI «OSIYO PODSHOHI» DEB E'LON KILGAN, LEKIN UNING O'ZI AYNAN SHU YERDA ASIRGA OLINGAN. VII ASRDA SHAHARNI ARABLAR QAMAL QILGAN, BIR ASR KEYIN ESA KESH SHAHRI MUQANNA RAHBARLIGI OSTIDA ARABLARGA QARSHI KUCHLI QO'ZG'OLONNING MARKAZI BO'LDI. TINCH DAVRDA SHAHAR HECH QANDAY TO'SQINLIKSIZ O'SIB RIVOJLANAR EDI, BUNGA UNING GAVJUM BUYUK IPAK YO'LIDAGI NIHOYATDA QULAY JOYLASHUVI SABAB BO'LGAN.



# E’TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!